



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 18 - avgust

104-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Qiziriq tumani Kunchiqish massivi hududidan “Turonbank” ATB ishtirokida limonchilik yo‘nalishida yengil konstruksiyali “Issiqxona” tashkil etish uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Limonchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 19-fevraldagi PQ-4610-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 1-2 iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 30-son yig‘ilish bayonining 64-bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2021-yil 17-iyuldagi 06/022-566-sonli xati hamda Qiziriq tumani hokimligi huzuridagi yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiquvchi komissiyaning 2021-yil 12-iyuldagi 01-05/220-son yig‘ilish bayoni va Qiziriq tumani xokimining 2021-yil 12-iyuldagi 01-05/2530-son xatini inobatga olib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Qiziriq tumani Kunchiqish massivi hududidan tuman hokimligi zaxirasidagi qishloq xo‘jalik xaritasining 2523 va 2528-dala konturlaridagi tuproq unumdorligi o‘rtacha 39,5 ball bonitetli jami 35,0 gektar sug‘oriladigan ekin yer maydoni “Turonbank” ATB ishtirokida limonchilik yo‘nalishidagi engil konstruksiyali “Issiqxona” tashkil etish uchun (30 yil muddatga) ijara huquqi bilan ajratilishi belgilansin.

2. Tuman hokimligi (I.Yusupov), “Turonbank” ATB bilan birgalikda 10 kun muddatda limonchilik yo‘nalishidagi yengil konstruksiyali “Issiqxona” tashkil etish uchun tashabbuskor tadbirkorlar ro‘yxatini shakllantirish choralari ko‘rsin.

3. Tashabbuskor tadbirkorlarga:

“Turonbank” ATB bilan kelishilgan holda viloyat Qurilish bosh boshqarmasi bilan me‘moriy rejalashtirish topshirig‘ini tayyorlash;

bir oy muddatda bank kredit mablag‘larini ajratish maqsadida “Turonbank” ATBga 30% loyiha ulushi, garov ta’minoti va boshqa kerakli hujjatlarni taqdim etish;

qator orasiga “Limonchilik” Uyushmasi tomonidan tavsiya etilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish;

soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lab borish;

ajratilgan yer maydonlaridan samarali va maqsadli foydalanishni tashkil etish, tejamkor isitish texnologiyalarini joriy etish;

issiqxona uchun ajratib berilayotgan yer maydonidan faqat limonchilik issiqxonasi qurish uchun foydalanish;

yetishtirgan mahsulotlarni eksport qilish vazifalari yuklansin.

4. Yer maydonidan maqsadsiz foydalanilganda yoki bir yil mobaynida foydalanilmaganida ajratib berilgan yer maydoni tuman hokimligi zaxirasiga qaytarib olinishi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abdurahmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

7. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

8. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e’lon qilinsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari U.Turapov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyati hokimi**



**Bobolov T.A.**